

## DORIVOR O'SIMLIKLAR ORQALI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINI EKOLOGIK TARBIYA VA SOG'LOM TURMUSH TARZIGA YO'NALTIRISH

*Rajabaliyeva Mohichehra Bahodir qizi*

*Uzun tuman3-son texnikumi o'qituvchisi*

*Email: mohichehrarajabaliyeva@gmail.com*

*Tel: +998 90 295 72 10*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dorivor o'simliklarning maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni, ularning ekologik tarbiya va sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi foydasi haqida so'z boradi. Bolalarga tabiatni sevdurish va ekologik ongini shakllantirishda dorivor o'simliklardan foydalanishning samarali yo'llari ko'rsatilgan.

**Annotation:** This article highlights the role of medicinal plants in preschool education and their benefits in promoting ecological education and healthy living. It presents effective ways of using medicinal plants to help children appreciate nature and develop ecological awareness.

**Kalit so'zlar:** dorivor o'simliklar, maktabgacha ta'lim, ekologik tarbiya, sog'lom turmush tarzi, bolalar, tabiiy vositalar, gigiena, o'simlik parvarishi, fitoterapiya, o'quv faoliyati.

**Keywords:** medicinal plants, preschool education, ecological education, healthy lifestyle, children, natural remedies, hygiene, plant care, phytotherapy, learning activities.

Bugungi kunda ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida bu ishni erta boshlash muhim ahamiyatga ega. Dorivor o'simliklar bilan ishlash, ularni o'rganish va parvarish qilish orqali bolalar nafaqat tabiatni anglaydi, balki o'z sog'lig'iga e'tiborli bo'lishga o'rganadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'rish, sezish, hidlash, ushlab orqali bilim oladilar. Dorivor o'simliklar bu jarayonda tabiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, ularni ta'lim jarayoniga kiritish orqali ekologik va gigienik tarbiyani birgalikda olib borish mumkin.

Dorivor o'simliklar inson salomatligi uchun foydali bo'lgan, tarkibida shifobaxsh moddalar mavjud bo'lgan o'simliklardir. Dorivor o'simliklar qadimdan xalq tabobatida foydalanib kelingan. Ular salomatlikni mustahkamlash bilan birga, bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Yalpiz, moychechak, na'matak kabi o'simliklar bolalarning e'tiborini tortadi.

**Na'matak** – immunitetni oshiradi, S vitamini manbai.

**Yalpiz** – asabni tinchlantiradi, oshqozon faoliyatini yaxshilaydi.

**Moychechak** – yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega.

**Zanjabil** – sovuqdan saqlaydi, ishtahani ochadi.

**Sarimsoq piyoz**, – parazitlarga qarshi, dezinfeksiya vositasi sifatida ishlatiladi.

Bu o‘simliklarni bolalarga tanishtirish orqali ularning dunyoqarashi, tabiat haqidagi bilimlari kengayadi. Bolalar tabiiy muhit bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish orqali ekologik tafakkurga ega bo‘ladi. Dorivor o‘simliklar bilan tanishish va ularni parvarish qilish orqali bolalar: O‘simliklarning hayoti, o‘shish sharoitlari haqida bilim oladi, tabiatga mehr, g‘amxo‘rlik hissi uyg‘otiladi, “Tirik tabiat” tushunchasi shakllanadi. Misol uchun, bolalar na’matakni ko‘rib, uning mevasini ushlab, qayerda o‘shishini bilib, undan tayyorlanadigan choy haqida bilib oladi. Bu orqali ular o‘z atrof-muhitiga e‘tiborli bo‘lib, tabiatni qadrlashga o‘rganadilar.

Dorivor o‘simliklar tarbiyaviy jihatdan ham juda foydali:

Bolalarda gigiena ko‘nikmalari shakllanadi (qo‘l yuvish, gigienik choy tayyorlash, tozalikka rioya qilish).

Salomatlikka e‘tibor kuchayadi (masalan, sovuq tushganda yalpiz yoki zanjabil choy ichish kerakligi haqida).

Mehnat tarbiyasi rivojlanadi (ekish, sug‘orish, o‘simlikni parvarish qilish orqali).

Pedagog dorivor o‘simliklarni namoyish etadi, ularning foydasi haqida tushuntiradi va bolalarga kichik topshiriqlar beradi. Shu bilan birga, ota-onalarni ham bu jarayonga jalb qilish mumkin – ular o‘z hovlisida o‘stirayotgan dorivor o‘simliklar haqida bolalar bilan suhbat qurishi tavsiya etiladi. Maktabgacha ta’lim muassasasida dorivor o‘simliklar burchagi tashkil etilishi mumkin:

Kichik guldonlarda yalpiz, moychecha ekiladi;

Har bir o‘simlik yoniga nomi va foydasi yozilgan rasm osiladi;

Bolalar navbatchilik asosida o‘simliklarni sug‘oradi;

O‘simliklar o‘shishini kuzatib, rasm chizish, she’r aytish, topishmoq echish orqali bilim mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, dorivor o‘simliklar ishtirokida ekskursiyalar, tajribalar o‘tkazish (masalan, quritilgan moychechakdan choy tayyorlash) bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Dorivor o‘simliklar maktabgacha ta’lim jarayonida nafaqat tabiiy material sifatida, balki sog‘lomlashtirish, tarbiyaviy va ekologik tarbiya vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Bolalar bu o‘simliklar orqali: Sog‘lom turmush tarzini shakllantiradi, tabiatga e‘tiborli bo‘ladi, atrof-muhitni asrashga o‘rganadi. Har bir maktabgacha ta’lim tashkilotlarida dorivor o‘simliklar burchagi tashkil etilsa, pedagoglar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa hamda Ota-onalar bilan hamkorlikda ekologik loyiha ishlari tashkil etilsa maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiya va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bu esa bolalarning

ekologik ongini rivojlantiradi, sog'lom hayot tarziga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimova D.T., Akhmedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 132 b.
2. Raxmonqulova M. Dorivor o'simliklar va ularning xalq tabobatidagi o'rni. – Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2018. – 96 b.
3. Usmonova D.R. Maktabgacha ta'lim metodikasi. – Toshkent: "Nashr", 2021. – 228 b.
4. Axmedova S., To'xtayev A. Biologik faollikdagi dorivor o'simliklar. – Toshkent: Universitet, 2019. – 158 b.
5. Normurodova G. Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya. – Buxoro: "Ilm ziyo", 2022. – 115 b.
6. Qodirov A. Fitoterapiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 141 b.